

Izzatullayev Sunnatulla Shermuxammad o'g'li

Guliston davlat universiteti o'qituchisi

e-mail: sunnatullaizzatullayev@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0006-1316-5113>

KREDIT MODUL TIZIMIDA TALABALARDA SPORT MUSOBAQALARNI O'TKAZISH VA HAKAMLIK QILISH KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot kredit-modul tizimi sharoitida sport yo'nalishi talabalarida sport musobaqalarini tashkil etish va hakamlik qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratildi. Dars mashg'ulotlari boshlanishidan avval o'tkazilgan so'rovnoma natijalari talabalarda sport hakamligi, musobaqa tizimlari va nizom tuzish bo'yicha bilim hamda ko'nikmalar yetarli darajada tizimli va amaliy shakllanmaganini ko'rsatdi. Shu asosda fan dasturidagi amaliy mashg'ulotlar chuqurlashtirilib, real musobaqalar asosida hakamlik amaliyotlari tashkil etildi, keys-topshiriqlar, nizom tuzish bo'yicha mustaqil ishlar hamda professional hakamlar ishtirokidagi mahorat darslari joriy etildi. Natijada, talabalarining sport musobaqalarini tashkil etish va hakamlik faoliyatiga oid amaliy kompetensiyalari sezilarli darajada takomillashtirildi.

Kalit so'zlar: sport musobaqalari, hakamlik faoliyati, kredit-modul tizimi, kompetensiyaviy yondashuv, amaliy-modulli ta'lim, musobaqa tizimlari, musobaqa nizomi, sport hakamligi, pedagogik tajriba, oliy ta'lim.

Иззатуллаев Суннатулла Шермухаммад ўғли

Преподаватель Гулистанского государственного университета

e-mail: sunnatullaizzatullayev@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0006-1316-5113>

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В ОРГАНИЗАЦИИ И СУДЕЙСТВЕ СПОРТИВНЫХ СОРЕВНОВАНИЙ В КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЕ

Аннотация. Данное исследование было направлено на развитие компетенций по организации спортивных соревнований и судейской деятельности у студентов спортивных направлений в условиях кредитно-модульной системы. Результаты анкетирования, проведённого до начала учебных занятий, показали, что знания и умения студентов в области спортивного судейства, систем проведения соревнований и составления положения о соревнованиях сформированы недостаточно системно и практически. На основании полученных данных были углублены практические занятия учебной программы, организованы судейские практики на основе реальных соревнований, внедрены кейс-задания, самостоятельные работы по разработке положения о соревнованиях, а также проведены мастер-классы с участием профессиональных судей. В результате практические компетенции студентов в области организации и проведения спортивных соревнований и судейской деятельности были существенно улучшены.

Ключевые слова: спортивные соревнования, судейская деятельность, кредитно-модульная система, компетентностный подход, практико-ориентированное модульное обучение, системы проведения соревнований, положение о соревнованиях, спортивное судейство, педагогический эксперимент, высшее образование.

IMPROVING STUDENTS' COMPETENCIES IN ORGANIZING AND OFFICIATING SPORTS COMPETITIONS WITHIN A CREDIT-MODULAR SYSTEM

Izzatullayev Sunnatulla Shermuxammad o'g'li

Teacher at Gulistan State University

e-mail: sunnatullaizzatullayev@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0006-1316-5113>

Annotation. This study was aimed at developing competencies in organizing sports competitions and officiating among students majoring in sports within the credit-modular system. The results of a survey conducted prior to the start of classes revealed that students' knowledge and skills related to sports officiating, competition systems, and drafting competition regulations were insufficiently developed in a systematic and practical manner. Based on these findings, the practical components of the course curriculum were strengthened, including the organization of officiating practices based on real sports competitions, the implementation of case-based tasks, independent assignments on drafting competition regulations, and the introduction of master classes involving professional referees. As a result, students' practical competencies in organizing and officiating sports competitions were significantly improved.

Keywords: sports competitions, officiating activity, credit-modular system, competency-based approach, practice-oriented modular education, competition systems, competition regulations, sports officiating, pedagogical experiment, higher education.

Kirish

Bugungi kunda jahonda oliy ta'lim tizimini rivojlantirish, bo'lajak mutaxassislarning raqobatbardoshligini ta'minlash, ularning kasbiy-pedagogik faoliyatida innovatsion yondashuvlarni shakllantirish muhim vazifalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalar, zamonaviy didaktik vositalar va o'qitish uskunalaridan samarali foydalanish, o'qitishning zamonaviy metodlarini integratsiyalashga katta e'tibor qaratilmoqda.

Yevropa va boshqa rivojlangan davlatlar tajribasiga tayangan holda, oliy ta'limda European Credit Transfer and Accumulation System (ECTS) asosidagi kredit-modul tizimi keng joriy qilinmoqda. Ushbu tizim doirasida ta'lim jarayonini amaliy yo'naltirish, virtual loyihalashtirish (masalan, simulations), masofaviy ta'lim platformalari (Moodle, Ilias, Dokeos) orqali o'quv faoliyatini tashkil etish, axborot-ta'lim muhitida (e-learning) talabalarning mustaqil fikrlashi va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida urg'u berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining 36-moddasida ta'lim sohasidagi eksperimental va innovatsion faoliyat ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga yo'naltirilgani, u yangi ta'lim texnologiyalari va resurslarini ishlab chiqish, ularni amaliyotda sinovdan o'tkazish hamda ta'lim jarayoniga bosqichma-bosqich joriy etishni nazarda tutishi belgilab qo'yilgan. Mazkur qonun asosida oliy ta'lim tizimiga kredit-modul tizimining joriy etilishi ham muhim innovatsion faoliyat yo'nalishi hisoblanadi. Ushbu tizim milliy oliy ta'limni xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish, ta'lim jarayonida shaffoflikni ta'minlash hamda talabalarning akademik mobilligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, kredit-modul tizimi oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy bilimga ega, yuksak kasbiy kompetensiyaga ega, pedagogik, umumiy va kasbiy madaniyatni puxta egallagan, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok eta oladigan, kreativ fikrlash qobiliyatiga ega hamda strategik vazifalarni samarali bajara oladigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, sport ta'limi yo'nalishlarida talabalarning sport musobaqalarni o'tkazish va hakamlilik qilish kompetensiyalarini takomillashtirish, ularni real sharoitda faoliyat yuritishga tayyorlash, akademik mobilligini oshirish, shuningdek, kasbiy-pedagogik malakasini rivojlantirish zamonaviy ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Shu maqsadda, o'quv mashg'ulotlariga interaktiv yondashuvlar, modulli o'quv dasturlari, amaliy va simulyatsion mashg'ulotlar, raqamli platformalar orqali baholash va refleksiya usullarini keng joriy qilish orqali sport mutaxassislarini zamonaviy talablarga mos holda tayyorlash ta'minlanmoqda.

Adabiyotlar tahlili

Bugungi globallashtirish sharoitida jismoniy tarbiyaning inson va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni tobora ortib bormoqda. Jismoniy tarbiya va sport sog'lom turmush tarzini shakllantirish, inson salomatligini mustahkamlash hamda jamiyatda ijtimoiy faollikni oshirishning muhim omiliga aylanmoqda. Shu bilan birga, u milliy qadriyatlarimizni rivojlantirish, yoshlar ongida vatanparvarlik va sog'lom hayot falsafasini shakllantirishda muhim ijtimoiy-madaniy kuch sifatida

namoyon bo'lmoqda. Jismoniy tarbiya va sport kuchli davlat hamda sog'lom jamiyatni barpo etishda asosiy harakatlantiruvchi omillardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning ustuvor yo'nalishlari bo'lib xizmat qilishi zarur". Aynan shu omillar yosh avlodning har tomonlama barkamol bo'lib voyaga yetishida muhim poydevor hisoblanadi.

Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislarni tayyorlash, ayniqsa sport musobaqalarini tashkil etish va hakamlik qilish bo'yicha ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga bo'lgan jamiyat talablari sezilarli darajada ortib bormoqda. Zamonaviy sport amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, mutaxassis faqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, balki real musobaqa jarayonlarini samarali tashkil eta olishi, hakamlik faoliyatini professional darajada amalga oshira bilishi zarur.

Aynan shu jihatdan kredit-modul ta'lim tizimi talabalarning sport musobaqalarini o'tkazish va hakamlik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun muhim pedagogik asos bo'lib xizmat qilmoqda. Kompetensiyaviy va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modeli doirasida jismoniy tarbiya yo'nalishi talabalarini tayyorlash jarayoni ham tubdan yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Agar ilgari o'qituvchi va murabbiylarni tayyorlash jarayonida asosan texnik va metodik ko'nikmalarni shakllantirishga urg'u berilgan bo'lsa, hozirgi bosqichda talabalarni musobaqalarni mustaqil tashkil etish, hakamlik jarayonini boshqarish, nizoli vaziyatlarni hal etish va tezkor qaror qabul qilish kabi kasbiy faoliyat turlariga tayyorlash ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Shu nuqtai nazardan, sport musobaqalarini o'tkazish va hakamlik qilish bo'yicha kasbiy kompetentlik talabaning nazariy bilimlari, amaliy tayyorgarligi, individual qobiliyatlari hamda musobaqa jarayonlarida to'plagan tajribasiga asoslangan integrallashgan pedagogik kategoriya sifatida qaraladi. Kredit-modul tizimi esa ushbu kompetensiyalarni bosqichma-bosqich shakllantirish, mustaqil

ta'lim faoliyatini kengaytirish va natijaga yo'naltirilgan baholash tizimini joriy etish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotning obyekti sifatida sportlari turi bo'yicha talabalarda sport musobaqalari o'tkazish va hakamlik qilish kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni. Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda pedagogik kuzatuv, so'rov, suhbat, anketa, test, intervyu, usullaridan foydalanildi.

Natijalar va ularning tahlili

Zamonaviy jismoniy tarbiya va sport ta'limida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonida nafaqat sport texnikasi va metodikasiga, balki sport musobaqalarini tashkil etish hamda hakamlik qilish kompetensiyalariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Sport sohasida faoliyat olib boruvchi mutaxassis musobaqani rejalashtira olishi, jarayonni boshqarishi, adolatli va professional hakamlikni amalga oshirishi lozim. Kredit-modul tizimi talabalarining mustaqil faoliyatini faollashtirish, nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish, kompetensiyaviy yondashuvni ta'minlash imkonini beradi. Shu boisdan, mazkur tadqiqotda kredit-modul tizimi asosida talabalarda sport musobaqalarini o'tkazish va hakamlik qilish kompetensiyalarini takomillashtirish masalalari o'rganildi.

Tadqiqotimiz davomida o'z oldimizga maqsad qilib kredit-modul tizimi asosida sport yo'nalishi talabalarida sport musobaqalarini o'tkazish va hakamlik qilish kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali usul va mexanizmlarini ishlab chiqish va tajriba asosida asoslash edi. Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy-pedagogik usullardan foydalanildi:

- Pedagogik kuzatuv – talabalarining mashg'ulot va musobaqalardagi faoliyati, hakamlik malakalari muntazam kuzatildi.
- So'rov va anketa – talabalarining bilim, ko'nikma va munosabat darajalarini aniqlash uchun o'tkazildi.
- Suhbat va intervyu – talabalarining subyektiv fikr va tajribalarini aniqlash maqsadida olib borildi.

- Test usuli – sport qoidalari va hakamlik bilimlarini baholash uchun qoʻllanildi.

- Pedagogik tajriba – nazorat va tajriba guruhlarida asosida kompetensiyalarning rivojlanish darajasi solishtirildi.

Tajriba guruhida kredit-modul tizimi asosida:

“Sport turlari boʻyicha musobaqalar oʻtkazish va hakamlik qilish”

“Tanlangan sport turida rejalashtirish va hakamlik faoliyati” fanlar boʻyicha maxsus amaliy mashgʻulotlar joriy etildi.

Mashgʻulotlarda:


- rol oʻyinlari,
- real musobaqalarda ishtirok,
- musobaqa jarayonlarini modellashtirish,
- video-analiz va vaziyatli topshiriqlar keng qoʻllanildi.

Tadqiqot doirasida sport turlari boʻyicha hakamlik faoliyatiga oid bilim va malakalarni aniqlash maqsadida soʻrovnoma oʻtkazildi. “Oʻtkazilgan empirik tadqiqot natijalari talabalarning sport hakamligi sohasidagi bilim darajasini baholash imkonini berdi.

Soʻrovnomaning savollariga talabalar quyidagich javob berish soʻrovnomada 145 ta talaba ishtirok etdi.

Sport turlari boʻyicha hakimlik qilish haqida bilim malakaga egasiz?

145 ответов



“Sport turlari bo'yicha hakamlik qilish haqida bilim va malakaga egamisiz?”

(Jami respondentlar: 145 nafar)

Natijalar quyidagicha taqsimlangan:

- “Ha” – 39,3 % Respondentlarning qariyb uchdan bir qismi sport turlari bo'yicha hakamlik qilish bo'yicha yetarli bilim va malakaga ega ekanligini bildirgan.


- “Ayrim sport turlarida haqida bilaman” – 36,6 % Ishtirokchilarning sezilarli qismi hakamlik faoliyati bo'yicha qisman bilimga ega, ya'ni ayrim sport turlarigagina oid tushunchalarga ega ekanligi aniqlangan.

- “To'liq ega emasman” – 20 % Har beshinchi respondent o'z bilim va malakasini yetarli deb hisoblamaydi, bu esa tayyorlov darajasida bo'shliqlar mavjudligini ko'rsatadi.

- “Yo'q” – taxminan 4 % Juda kam qism ishtirokchilar hakamlik bo'yicha mutlaqo bilimga ega emasligini bildirgan.

Qaysi sport turlari bo'yicha hakimlik qilish haqida bilim malakaga egamisiz? (bir nechta javobni belgilang)

145 ОТВЕТОВ



“Qaysi sport turlari bo'yicha hakamlik qilish haqida bilim va malakaga egasiz? (bir nechta javobni belgilash)”

Respondentlar soni: 145 nafar

Asosiy natijalar

Diagramma natijalariga ko'ra, respondentlarning hakamlilik bo'yicha bilim va malakalari sport turlari kesimida notekis taqsimlanganligi kuzatiladi:

- Voleybol – 91 nafar (62,8%) Eng yuqori ko'rsatkich aynan voleybol sport turiga to'g'ri keladi. Bu holat OTMlarda voleybol fanining keng qamrovda o'qitilishi, musobaqalarning ko'pligi hamda ushbu sport turining ommabopligi bilan izohlanadi.

- Futbol – 90 nafar (62,1%) Futbol hakamligi bo'yicha bilimga ega respondentlar soni ham yuqori. Futbolning global va milliy miqyosda keng tarqalganligi, musobaqalar sonining ko'pligi bu ko'rsatkichga bevosita ta'sir ko'rsatgan.

- Basketbol – 42 nafar (29,0%) Basketbol bo'yicha hakamlilik bilimlari o'rtacha darajada shakllangan bo'lib, bu sport turi bo'yicha amaliy mashg'ulotlar yetarli emasligini ko'rsatadi.

- Yengil atletika – 41 nafar (28,3%) Yengil atletika hakamligi bo'yicha bilimga ega bo'lganlar ulushi ham o'rtacha ko'rsatkichni tashkil etadi. Bu holat mazkur sport turining ko'p tarmoqliligi va murakkab baholash mezonlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

- Gandbol – 36 nafar (24,8%) Gandbol bo'yicha hakamlilik bilimlari cheklangan miqdorda shakllangan bo'lib, bu sport turining ommaviyligi nisbatan pastligi bilan izohlanadi.


- Kurash – 33 nafar (22,8%) Milliy sport turi bo'lishiga qaramay, kurash hakamligi bo'yicha bilimga ega respondentlar ulushi o'rtacha-past darajada ekanligi aniqlandi. Bu maxsus hakamlilik tayyorgarligiga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatadi.

- Gimnastika – 20 nafar (13,8%) Gimnastika hakamligi bo'yicha bilimlar past darajada shakllangan. Bu sport turida hakamlikning murakkabligi va yuqori professional tayyorgarlik talab qilinishi bilan bog'liq.

- Suzish – 18 nafar (12,4%) Eng past ko'rsatkich suzish sport turiga to'g'ri keladi. Bu holat suzish bo'yicha musobaqalar va maxsus hakamlilik amaliyotining yetarli emasligini anglatadi.

Sport musobaqalarini tashkil qilishda qaysi musobaqa tizimi samarali deb hisoblaysiz?

145 ОТВЕТОВ



“Sport musobaqalarini tashkil qilishda qaysi musobaqa tizimi samarali deb hisoblaysiz?”

Respondentlar soni: 145 nafar

Natijalar taqsimoti

Diagramma ma'lumotlariga ko'ra, respondentlarning fikrlari quyidagicha taqsimlangan:

- Chiqib ketish tizimi – 29,7 % Respondentlarning eng katta qismi ushbu tizimni samarali deb hisoblagan. Bu holat musobaqalarni qisqa muddatda o'tkazish, tashkiliy xarajatlarni kamaytirish hamda raqobat keskinligini oshirish bilan izohlanadi.


- Aylanma tizim – 29,0 % Deyarli teng ulushda respondentlar aylanma tizimni ham samarali deb baholagan. Ushbu tizim ishtirokchilarga ko'proq o'yin amaliyoti berishi va natijalarning adolatli aniqlanishini ta'minlashi bilan ajralib turadi.

- Aralash tizim – 25,5 % Respondentlarning to'rtidan bir qismi aralash tizimni ma'qul deb topgan. Bu tizim chiqib ketish va aylanma tizimlarning ijobiy jihatlarini uyg'unlashtirishi bilan ahamiyatlidir.

- Bu tizimlar haqida ma'lumotga ega emasman – 15,9 % Muayyan qismi respondentlar musobaqa tizimlari haqida yetarli bilimga ega emasligini bildirgan.

Musobaqalar nizomini tuzishni bilasizmi?

145 ОТВЕТОВ



“Musobaqalar nizomini tuzishni bilasizmi?”

Respondentlar soni: 145 nafar

Natijalar taqsimoti

Diagramma ma'lumotlariga ko'ra, respondentlarning javoblari quyidagicha taqsimlangan:

- “Ha” – 44,1 % Respondentlarning qariyb yarmi musobaqalar nizomini mustaqil ravishda tuzish bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmaga ega ekanligini bildirgan. Bu holat talabalarda tashkiliy-huquqiy kompetensiyalarning ma'lum darajada shakllanganidan dalolat beradi.

- “Nizom tuzish haqida qisman bilaman” – 42,1 % Deyarli shuncha miqdordagi respondentlar nizom tuzish bo'yicha faqat qisman tasavvurga ega ekanligini ko'rsatgan. Bu ularning nazariy bilimlari mavjud bo'lsa-da, amaliy tajriba yetarli emasligini anglatadi.

- “Yo'q” – 11,7 % Respondentlarning ma'lum qismi musobaqa nizomini tuzishni bilmasligini bildirgan, bu esa mazkur yo'nalishda maxsus o'qitish zarurligini ko'rsatadi.

- “Bilishim shart emas” – taxminan 2 % Juda kam qism respondentlar musobaqa nizomini bilishni zarur deb hisoblamasligini bildirgan, bu esa kasbiy motivatsiya va tushuncha yetishmasligini anglatadi.

O'tkazilgan so'rovnoma natijalari talabalarning sport musobaqalarini tashkil etish va hakamlilik faoliyatiga oid bilim, malaka va kompetensiyalarini

kompleks tahlil qilish imkonini berdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, respondentlarning aksariyatida sport hakamligi bo'yicha to'liq yoki qisman bilimlar mavjud, biroq ushbu bilimlar tizimli, amaliy va kasbiy kompetensiya darajasida yetarli darajada shakllanmagan.

Musobaqa tizimlariga oid savollar natijalari respondentlarning chiqib ketish, aylanma va aralash tizimlarga nisbatan qarashlari deyarli teng taqsimlanganini ko'rsatdi. Bu esa talabalarda musobaqa tizimini vaziyatga mos tanlash ko'nikmasi yetarli darajada shakllanmaganligini anglatadi. Shuningdek, respondentlarning ma'lum qismi musobaqa tizimlari haqida yetarli ma'lumotga ega emasligini bildirgan.

Musobaqa nizomini tuzish masalasida respondentlarning katta qismi to'liq yoki qisman bilimga ega ekanligini qayd etgan bo'lsa-da, "qisman bilaman" javobining yuqori ulushi ushbu kompetensiya nazariy darajada qolayotganini, amaliy jihatdan mustahkamlanmaganini ko'rsatadi. Umuman olganda, so'rovnoma natijalari sport musobaqalarini tashkil etish va hakamlik faoliyati bo'yicha ta'lim jarayonini kompetensiyaviy, amaliy va modulli yondashuv asosida takomillashtirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Mazkur so'rovnoma dars mashg'ulotlari boshlanishidan avval o'tkazilib, talabalarining sport musobaqalarini tashkil etish va hakamlik faoliyatiga oid dastlabki bilim, malaka hamda kompetensiyalarini aniqlashga xizmat qildi. Olingan natijalar asosida fan dasturidagi amaliy mashg'ulotlar mazmuni chuqurlashtirilib va takomillashtirilib, ta'lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuv asosida qator samarali pedagogik tadbirlar joriy etildi.

Xususan, har bir sport turi bo'yicha real musobaqalar negizida hakamlik amaliyotlari tashkil etildi, talabalar musobaqalarda hakam yordamchisi, kotib hamda bosh hakam assistenti sifatida bevosita ishtirok etishga jalb qilindi. Bu esa ularning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish imkonini berdi. Shuningdek, chiqib ketish, aylanma va aralash musobaqa tizimlari taqqoslovchi keys-topshiriqlar orqali o'rgatilib, turli sharoitlar uchun eng maqbul musobaqa tizimini tanlash algoritmlari ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi.

Bundan tashqari, talabalarga musobaqa nizomi loyihasini mustaqil ishlab chiqish topshiriqlari berilib, tayyor nizomlar dars jarayonida tahlil qilindi hamda aniqlangan xato va kamchiliklar yuzasidan muhokamalar olib borildi. Ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida professional hakamlar ishtirokida mahorat darslari va uchrashuvlar tashkil etildi, bu esa talabalarning kasbiy motivatsiyasini kuchaytirishga xizmat qildi.

Natijada, amalga oshirilgan ushbu kompleks pedagogik tadbirlar orqali talabalarda sport musobaqalarini tashkil etish va o'tkazish, shuningdek hakamlik faoliyatini amalga oshirish bo'yicha amaliy kompetensiyalar sezilarli darajada takomillashtirildi.

Xulosa

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarning sport musobaqalarini tashkil etish va hakamlik faoliyatiga oid dastlabki bilimlari mavjud bo'lsa-da, ularning amaliy va kasbiy kompetensiya darajasi yetarli darajada shakllanmagan. So'rovnoma natijalari hakamlik bilimlarining sport turlari kesimida notekis taqsimlanganini, musobaqa tizimlarini tanlash hamda musobaqa nizomini tuzish ko'nikmalarida muayyan bo'shliqlar mavjudligini aniqlash imkonini berdi.

Mazkur holatni bartaraf etish maqsadida fan dasturida amaliy mashg'ulotlar chuqurlashtirilib, real musobaqalar asosida tashkil etilgan hakamlik amaliyotlari, vaziyatli keys-topshiriqlar, musobaqa tizimlarini tanlash algoritmlari hamda nizom tuzish bo'yicha mustaqil topshiriqlar talabalarning kasbiy tayyorgarligini sezilarli darajada oshirdi. Professional hakamlar ishtirokida o'tkazilgan mahorat darslari esa talabalarning kasbiy motivatsiyasi va amaliy faoliyatga tayyorgarligini kuchaytirdi. Natijada, talabalarda sport musobaqalarini tashkil etish va o'tkazish hamda hakamlik faoliyatini samarali amalga oshirish bo'yicha zarur kompetensiyalar shakllandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anorqulov, B. (2025). TALABALARDA OMMAVIY SPORT TADBIRLARINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH OMPETENSIYALARINI

RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY JARAYONLARINING MOHIYATI. Академические исследования в современной науке, 4(29), 45-48.

2. Izzatullayev, S. (2024). IMPROVING STUDENTS'COMPETENCIES IN ORGANIZING AND OFFICIATING VOLLEYBALL COMPETITIONS. Теоретические аспекты становления педагогических наук, 3(19), 78-82.

3. Izzatullayev.S.Sh. SPORT TURLARI BO‘YICHA MUSOBAQALAR O‘TKAZISH VA HAKAMLIK QILISH. [O‘quv qo‘llanma] “GRAND KONDOR PRINT”, — Toshkent 2023 y., 248 bet.

4. Mukhamedova, M., Eshmamatov, O., Izzatullayev, S., Kucharova, M., Isroilov, S., & Kurbanova, S. (2025). Exploring the Impact of Environmental Stressors on Reproductive Health and Fertility Rates in Human and Animal Populations. Journal of Animal Environment, 17(1), 251-264.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi <https://president.uz/ru/lists/view/4057>

6. Shermuxammad o‘g‘li, I. S. IMPROVING STUDENTS' COMPETENCIES IN ORGANIZING SPORTS COMPETITIONS AND REFEREEING IN THE CREDIT-MODULAR SYSTEM. Decision-Making (Refereeing), 4, 22.

7. Sultonov.Z.S. JISMONIY MADANIYAT NAZARIYASI VA METODIKASI [O‘quv qo‘llanma] Guliston-2024 y., 133 bet

8. Sunnatulla, I. (2023). Improving the competences of conducting sports competitions and refereeing among students in the conditions of digitalization. Confrencea, 11(1), 149-153.

9. Иззатуллаев, С. (2024). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В ПРОВЕДЕНИИ СПОРТИВНЫХ СОРЕВНОВАНИЙ И СУДЕЙСТВЕ В КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЕ. Решение социальных проблем в управлении и экономике, 3(10), 103-107.